



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 18 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 7, НОМЕР 18

LOOK TO THE PAST

VOLUME 7, ISSUE 18



ТОШКЕНТ-2024

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Урганч давлат университети

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Babajanova Diloram O‘ZBEKISTONDA MILLIY-MADANIY MARKAZLARNING MILLATLARARO MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O‘RNI.....	5
2. Курязова Дармонжон ТОШКЕНТ ЁҒОЧ ЎЙМАКОРЛИГИ ТАРИХИДАН.....	13
3. Djurayeva Nilufar O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR QO‘MITASINING AYOLLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI VA ROLI (1991-2020 yu.).....	19
4. Jumayev Jo‘rabek 1950-80-YILLARDA NUROTA VOHASIDAN SAMARQAND VILOYATI TUMANLARIGA AHOLINI KO‘CHIRISH JARAYONLARI XUSUSIDA.....	34
5. Xayrullayeva Maftuna GENDER TENGLIGI MASALALARINING XALQARO NORMATIV-HUQUQIIY ASOSLARI.....	39
6. Mavlanova Sitara BOBUR XALQARO JAMOAT FONDINING TARIXIIY-MADANIY MEROSNI TIKLASH VA SAQLASHDAGI O‘RNI.....	46
7. Абдукаримова Мадинабону РОЛЬ ДЖАДИДОВ В РАЗВИТИИ ПРОФСОЮЗНОГО ДВИЖЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ.....	51
8. Нигорахон Исмоилова ЖЕНСКИЙ ФЕРМЕНТ В СОЦИАЛЬНОЙ СТРАТИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВА УЗБЕКИСТАНА В ПЕРВЫЕ ТРИ ДЕСЯТИЛЕТИЯ XX ВЕКА: ТРАДИЦИОННОСТЬ И ТРАНСФОРМАЦИЯ.....	55
9. Vaxtiyorzoda Oydingon O‘ZBEKISTON GEOLOGIYA FANI RIVOJLANISH MASALLARININI SOVET ADABIYOTIDAGI AKSI.....	60
10. Хабибиллаев Баходир ЧАСТНЫЙ БИЗНЕС В НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (1991- 2021 ГОДЫ).....	70
11. Тухтахунов Илхомжон ИСЛОМ ДИНИДА ШАХС МАЪНАВИЯТИ ВА МАЪРИФАТИ МАСАЛАЛАРИ.....	75
12. Хасанов Бунёд ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА НАМАНГАН ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИНГ ЁРДАМИ ВА ФРОНТ ОРТИДАГИ ЖАСОРАТЛАРИ.....	80



Jo‘rabek Boboqul o‘g‘li Jumayev,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
tarix fakulteti o‘qituvchisi

1950-80-YILLARDA NUROTA VOHASIDAN SAMARQAND VILOYATI TUMANLARIGA AHOLINI KO‘CHIRISH JARAYONLARI XUSUSIDA

For citation: Jurabek B.Jumayev. ON THE PROCESSES OF POPULATION MIGRATION FROM THE NURATA OASIS TO THE DISTRICTS OF THE SAMARKAND REGION IN THE 1950-1980s. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 10, pp.34-38

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14048974>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asrning 50-80-yillarida Sovet hukumatining yangi yerlarni o‘zlashtirish munosabati bilan O‘zbekistonda amalga oshirgan ko‘chirish siyosati haqidagi muallifning fikr-mulohazalari bayon qilingan. Shuningdek, aholining 1950-80-yillarda Samarqand viloyati tumanlariga ichki ko‘chirish bilan bog‘liq jarayonlar bir qancha ilmiy manbalar va arxiv hujjatlariga tayanilgan holda Nurota vohasi misolida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Sovet hukumati, migratsiya, O‘zbekiston SSR, O‘zbekiston SSR Qishloq Xo‘jaligi Ministrligi, yangi yerlarni o‘zlashtirish, Ko‘chirish Bosh Boshqarmasi, Samarqand oblast ijroiya komiteti, rayon, ichki ko‘chirish, sovxozlar.

Джурабек Джумаев,
Джизакский государственный педагогический университет
преподаватель исторического факультета

О ПРОЦЕССАХ ПЕРЕСЕЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ИЗ НУРАТИНСКОГО ОАЗИСА В РАЙОНЫ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В 1950-1980-Е ГОДЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье изложено мнение автора о переселенческой политике, проводимой советским правительством в Узбекистане в связи с освоением новых земель в 1950-1980-е годы. Также на примере Нуратинского оазиса, опираясь на ряд научных источников и архивных документов, были рассмотрены процессы, связанные с внутренним переселением населения в районы Самаркандской области в 1950-80-е годы.

Ключевые слова: советская власть, миграция, Узбекская ССР, Министерство сельского хозяйства Узбекской ССР, освоение новых земель, Главное Управление Переселения, Самаркандский облисполком, район, внутреннее переселение, совхозы.

Jorabek Jumayev,
Jizzakh State Pedagogical University
teacher of the history faculty

ON THE PROCESSES OF POPULATION MIGRATION FROM THE NURATA OASIS TO THE DISTRICTS OF THE SAMARKAND REGION IN THE 1950-1980S

ABSTRACT

This article presents the author's opinion on the resettlement policy pursued by the Soviet government in Uzbekistan in connection with the development of new lands in the 1950s-1980s. Also, using the example of the Nurata oasis, relying on a number of scientific sources and archival documents, the processes associated with the internal resettlement of the population to the districts of the Samarkand region in the 1950s-80s were examined.

Index Terms: Soviet power, migration, Uzbek SSR, Ministry of Agriculture of the Uzbek SSR, development of new lands, Main Directorate of Resettlement, Samarkand Regional Executive Committee, district, internal resettlement, state farms.

1. Dolzarbligi:

Migratsiya mintaqalar, respublikalar, shahar va qishloq o'rtasida mehnat resurslarini qayta taqsimlash hamda aholi soni, tarkibi va joylashuvi o'zgarishining asosiy omillaridan biridir. Respublikalar ko'p millatliligining ortib borishiga ham aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi, ya'ni migratsiya jarayoni katta ta'sir ko'rsatadi. Keyingi yillarda jamiyatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi ko'plab o'zgarishlar bir qancha amaliy va nazariy muammolarni, shu jumladan, o'tgan asrning 50-80-yillarida Sovet hukumatining yangi yerlarni o'zlashtirish munosabati bilan O'zbekistonda amalga oshirgan ko'chirish siyosatini ilmiy tadqiq etishni naqadar muhim va dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston SSR qishloq aholisining past darajada hududiy harakat qilishida aholining asosan vohalarda joylashganligi; uning oddiy qishloq xo'jalik mehnat turlarini afzal ko'rishi; an'anaviy ravishda tug'ilgan joyiga bog'liqligi, qarindosh-urug'chilik aloqalari, shuningdek, katta oilalar ko'chishidagi qiyinchilik va boshqa omillar asosiy sabablardir. Migratsiya harakatining pastligi respublikamiz ijtimoiy-demografik rivojlanishining o'ziga xos xususiyati bo'lib, aholini ish bilan ta'minlash darajasiga, oilaning katta-kichikligiga, aholi joylashishi, shakli va xususiyatiga, aholi migrantlarining yo'nalishi, ko'lami va jadalligiga ta'sir qilib kelgan [1:132].

Bizga ma'lumki, Sovet hokimiyatining ko'chirish siyosati jadallashgan davrda aholini ko'chirish asosan, respublikalararo, oblastlararo (tashqi) va rayonlararo (ichki) shakllarda tashkil qilingan. O'zbekistonning yirik mintaqalaridan biri bo'lmish Nurota vohasi aholisining katta qismi ham o'sha davrda ichki ko'chirishlarga jalb qilingan. Vohadan aholini ichki ko'chirish asosan Samarqand oblastiga yo'naltirilgan. Biroq ta'kidlash kerakki, oblast mutasaddi rahbarlari asosiy e'tiborni tashqi-respublikalararo hamda oblastlararo ko'chirishga qaratib, ichki-rayonlararo ko'chirishga esa ikkinchi darajali masala sifatida qaraganlar.

O'rganilayotgan davrda respublikamiz oblastlarida tashkil etilayotgan ichki ko'chirishlar ham muhim tadbir hisoblanib, rayondan rayonga ko'chirilganlar haqida arxiv hujjatlarida va ilmiy adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar saqlangan [2:246]. Maqolada tilga olinayotgan Nurota vohasi hududi asosan Samarqand oblastiga tegishli bo'lib, voha aholisining ko'pchilik qismi ichki ko'chirishlarga jalb etilgan.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Tarix fanining xos metodlaridan qiyosiy tahlil, manbalar tahlili, fanlararo metodlardan foydalanilgan holda tarixiylik, davriylik va xolislik tamoyillari asosida maqola mavzusi yoritib berishga harakat qilindi.

Arxiv hujjatlarida ta'kidlanishicha, Samarqand oblasti Kattaqo'rg'on rayonida ichki ko'chirish masalasida mazkur rayon partiya komiteti obliroiya komitetning 6-mart 1959-yilda

qabul qilgan № 50-sonli qarorida ko'rsatilgan 200 ta xo'jalikni Mirzacho'lga ko'chirishdan voz kechib, ularni Qoradaryo zonasiga joylashtirishni so'ragan. Oblast ijroiya komiteti ushbu iltimosni o'rganib chiqib, Mirzacho'lga ko'chirish haqidagi qarorini bekor qilgan. Hujjatlarda aytilishicha, "...biroq, o'rtoq Yaxshiyev va Bagrovalar shuncha ortiqcha ishchi kuchi bo'lishiga qaramay, "ko'chiramiz" degan quruq va'dalardan boshqa narsaga o'tmagan. Birgina Jom qishlog'ida hammasi bo'lib -416 ta xo'jalik, ularda jami -1209 kishi mehnatga yaroqli aholi, shundan erkaklar -768 kishi, ayollar esa -441 nafar. Kattaqo'rg'on sovxozida esa mehnatga layoqatsizlar ko'pchilik. Viloyat ichkarisiga ko'chirish tashkil etilmas ekan, aholi Markaziy Komitet va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining rejasida Mirzacho'lga ko'chirilishi mumkin. Shu bois rayon ijroiya komiteti raislari va raykom sekretarlari ko'chirish rejasini bajarishda faollik ko'rsatishlari shart" [9:49].

Shu kabi e'tiborsizlik va befarqliklar rasmiy hujjatlar tahlilida yanada aniqroq ko'zga tashlanadi: 1952-yil 22-martda Mehnatkashlar deputatlari Samarqand oblast ijroiya soveti raisi tomonidan Ishtixon rayon ijroiya qo'mitasi raisi o'rtoq Samiboyevga rasmiy xat yuborilgan. Xatda aytilishicha, respublika hukumati va idoralari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolika hamda "Markaz"ning ko'chirish organlaridagi strukturaviy o'zgarishlar Samarqand oblastida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ko'chirish tadbirlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Bunga asos sifatida Stalin vafotidan keyin boshlanib ketgan optimallashtirish tufayli "Ko'chirish Bosh Boshqarmasi"ning tugatilganligini ham kiritish mumkin [3:67]. Chunki, ayni ko'chirish kompaniyasi avjiga chiqqan 1953-yilda SSSR Ministrlar Sovetining 1953-yil 7-dekabrda 2895-sonli qarori asosida O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti tasarrufidagi "Ko'chirish Bosh Boshqarmasi" va uning bo'limlarini O'zbekiston SSR Qishloq Xo'jaligi Ministrligi tuzilmasiga kiritish hamda Ko'chirish bo'limi va rayon nazoratchilari sonini qisqartirish bo'yicha qaror imzolangan edi. Qarorga muvofiq respublika "Ko'chirish Bosh Boshqarmasi" tarkibi 35,0 foizga qisqartirildi, Samarqand viloyatida ham ushbu boshqarma shtatlari kamaytirilib, 5 nafar xodim qolishi belgilandi [4:64]. Bunday o'zgarishlar shusiz ham joylarda tashkiliy ishlar va targ'ibot-tashviqot ishlarini yaxshi yo'lga qo'yimagan Ko'chirish boshqarmasining faoliyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Yana arxiv hujjatlariga murojaat qilamiz: Samarqand viloyat ijroiya komitetinnig 1958-yil 30-yanvardagi № 4\50-sonli qarorida 1958-yilgi oblast ichki ko'chirish rejalari muhokama qilingan. Mazkur qarorda ba'zi hududlarda ish kuchining yetishmasligi, boshqa joylarda esa ortiqcha ishchi kuchi mavjudligi ta'kidlanib, ishlab chiqarish kuchidan oqilona foydalanish maqsadida:

1. 1958-yilda -1200 ta xo'jalikni viloyat ichki hududlariga ko'chirish. Shulardan, paxtachilik sovxozlariga: -500 ta, paxtachilik kolxozlariga esa -700 ta xo'jalikni ko'chirish;
2. Ko'chirib keltirilganlar uchun jami -795 ta turar-joylar barpo etish, shundan paxtachilik sovxozlariga -300 ta, paxtachilik kolxozlariga esa -495 ta uy-joy qurib berish;
3. O'z SSR Ministrlar Sovetidan ichki ko'chirish rejasini tasdiqlash, belgilangan tartibda imtiyozlar berish so'ralishi ta'kidlangan. Ko'chirish ishlari bilan shug'ullanish uchun viloyat ko'chirish bo'limiga 1 ta katta inspektor, Oqdaryo va Payariq rayonlariga esa bittadan inspektor ajratish ko'zda tutilgan [7:169].

Darhaqiqat, rayon rahbarlari, kolxoz va sovxoz direktorlari bu masala bilan o'z vaqtida shug'ullanmaganlar. Hukumat ko'chirish muddati yaqinlashib qolgandagina aholini, birdaniga 2-3 kunning ichida ro'yxatga olish yoki bo'lmasa ba'zi qishloqlarni bir kechani o'zidayoq zo'rlik yo'li bilan kuch ishlatib, yoppasiga ko'chirib yuborish choralari qo'llagan holatlar ham kuzatiladi.

Ta'kidlash kerakki, ko'chirish komissiyasi a'zolari ham joylarga belgilangan muddatda yetib bormagan, o'z vaqtida ko'chiriluvchilar uchun hujjatlar rasmiylashtirilib, moddiy yordam va boshqa shu kabi imtiyozlar berilmagan hamda tushuntirish ishlari olib borilmagan. Birgina misol: Samarqand viloyat ijroiya qo'mitasi tomonidan Nurota rayonidan 1959-yil uchun ko'chirish rejasida 1959-yil 14-martda tasdiqlangan. Rejaga muvofiq Nurota rayoniga ko'chirishni tashkil etish va tushuntirish ishlarini olib borish uchun Xatirchi tuman partiya komitetining qurilish bo'limi boshlig'i Umarov, ko'chirish bo'yicha tanlov tashkilotchisi Fayzullayevlar yuborilgan [7:169].

Biroq ular belgilangan joylarga kech yetib borishgan va targ'ibot ishlarini vaqtida yo'lga qo'ya olmaganlar.

Aholini ko'chirish uchun ro'yxatga olish va rasmiylashtirish ishlari yakunlangach, ularni bevosita davlat tomonidan ajratilgan transport vositalari (poezd, yuk mashinalari, avtobus va boshqalar) bilan belgilangan manzilga yetkazib qo'yish ishlari amalga oshirilgan. O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti rayonlararo xo'jaliklarni yangi joyga ichki ko'chirib keltirishni oblast ijroiya qo'mitasi zimmasiga yuklagan. Ko'chirma qilingan aholini o'z manziliga yetkazib qo'yish maqsadida turli tashkilotlar: oblast qishloq xo'jalik mashinalari idorasi (selxoztexnika), qishloq xo'jaligi bo'limi, davlat xo'jaliklari, turli trestlar jalb etilgan.

Samarqand viloyati Ko'chirish bo'limi boshlig'i Hasanovning Samarqand viloyat ijroiya komitetiga yozma ma'ruzasida ko'chirilganlarga barcha zarur ehtiyoj mollari yetkazib berilganligi ta'kidlangan. Jumladan, har bir oila boshlig'iga ularning haq-huquqlarini ta'minlovchi, imtiyozli ko'chirish bileti tarqatilgan. Kredit hisobidan ko'chirib kelingan xo'jaliklarning 90 foizi sigir bilan ta'minlangan. Har bir oilaga avans sifatida 100 kg bug'doya berilgan, uning qolgan qismini joylashib bo'lgach tarqatilishi ko'zda tutilgan. Oila boshlig'iga oila a'zolarining sonidan kelib chiqib, uning har bir a'zosi uchun 25 rubl miqdorida pul hisoblab berilgan [8:20,21].

Arxiv materiallarida yozilishicha, Ishtixon rayon partiya komitetining arizasiga muvofiq, ushbu rayonga -400 ta xonadonni ko'chirib keltirish so'ralgan. Oblast (viloyat) partiya komiteti bu qarorni ma'qullab, Qo'shrabot-1 sovxozidan -100 ta xo'jalikni ko'chirish haqida buyruq chiqargan. Biroq, ta'kidlanishicha sovxozdan birorta ham xonadon ko'chirilmagan. Vaholanki, Qo'shrabot-1 sovxozida 1000 dan ortiq mehnatga layoqatli aholi bo'lsa-da, aholi hech qayerda ishlamay yurganligi ta'kidlanadi.

Oblast (viloyat) ijroiya komitetining 11-aprel 1959-yildagi № 233-R sonli qarori, shuningdek, Ishtixon rayon rahbariyatining Nurota rayon ijroiya komitetiga yo'llagan iltimosnomasiga binoan, Qo'shrabot-2 sovxozidan 150 xo'jalik Ishtixon rayonining "8-Mart" kolxoziga bir qancha imtiyozlar bilan ko'chirilishi kerak bo'lgan. Biroq, Nurota rayon ijroiya komiteti ko'chirish bo'yicha hech qanday chora-tadbirlar ko'rmagan. "...bizdan yana nima istaysizlar o'zi, Ishtixon rayon rahbariyati biror kishini ko'chirib joylashtirmagan bo'lsa ??? Biz-ku, 28 xo'jalikni ko'chirib kelib, joylashtirdik [9:48,49]. Demak, yuqoridagilardan ham bilish mumkinki, o'sha kezlarda Ko'chirish boshqarmasi bunday jiddiy masalalarga mas'uliyat bilan yondashmagan.

Yangi yerlarni o'zlashtirish va ushbu massivlarda yangi tashkil qilingan xo'jaliklarga odamlarni ko'chirish 1950-yillarning ikkinchi yarmida ham ba'zi bir kamchiliklarga qaramasdan jadal sura'tlar bilan olib borildi. Mazkur jarayonlarning amalga oshirilishi dinamikasini 1957-yil misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu faktning isbotini ko'rish mumkin [5:81].

3. Tadqiqot natijalari:

Nurota vohasida ko'chirish bilan bog'liq muammolaradan eng asosiysi oblast ijroiya komiteti tomonidan berilayotgan topshiriqlarga rayon partiya komiteti rahbarlarining e'tiborsizligi edi. Arxiv hujjatlarida bunday holatlar Nurota, Forish va Ishtixon rayonlarida ko'p sodir bo'lganligi qayd etiladi. Ushbu rayonlar rahbarlariga yo'l qo'yilgan kamchiliklar uchun hech qanday chora ko'rilmagan. Ko'chirish boshqarmasining bunday sansolorliklari o'z-o'zidan ko'chirish rejasiga kiritilgan aholining noroziligiga sabab bo'lgan [9:48]. Jumladan, Samarqand oblastida 1962-yil martigacha bo'lgan ko'chirish tadbirlarini borishi to'g'risida o'sha paytda oblastda ko'chirish ishlariga mas'ullardan biri, bo'lim boshlig'i lavozimida faoliyat yuritgan Yemelyanovning bergan ma'lumotida shu paytgacha -250 ta xo'jalik ko'chirilishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, -86 ta xo'jalik ajratib olinganligi va oxir-oqibatda bor-yo'g'i -6 ta xo'jalik ko'chirilganligi qayd etilgan [10:291].

Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, Samarqand viloyatida amalga oshirilgan ichki ko'chirishlarga asosan Nurota vohasi aholisi jalb etilgan bo'lib, ularning aksariyati Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Jomboy va Oqdaryo rayonlariga ko'chirilgan. Ko'chirilgan aholining ijtimoiy muammolari haqida so'z borganda, ushbu masalalarning yechimida ham sustkashlik kuzatiladi. Boshqalardan farq qilib, yangi tashkil etilgan kolxozlarga ko'chirilgan aholiga kredit ajratish

masalasi nisbatan qoniqarli tashkil qilingan. Aholiga kreditlar asosan uy-joy qurilishi va ro'zg'orga kerakli sigir uchun berilgan. [6:129].

4. Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, sovet hukumatining O'zbekiston SSRni oldiga qo'ygan paxta yetishtirish rejasining yil sayin muttasil oshib borishi mazkur respublika oblastlari ichida ham ichki ko'chirishlarni tashkil etishni taqozo qilgan. Amalga oshirilgan ichki ko'chirishlar natijasida Nurota vohasining aholisi Samarqand oblastining Ishtixon, Jomboy, Kattaqo'rg'on va Oqdaryo kabi rayonlariga ko'chirilgan. Ko'chirilgan aholi asosan to'qayzor va butazorlarni o'zlashtirish ishlariga jalb qilingan. Garchi oraliq masofa ko'chirilgan hududga yaqin bo'lsa-da, aholini yashashi uchun barcha qulayliklar yaratib berilmagan, shuningdek, respublikani boshqa mintaqalari bilan solishtirganda ko'chirilgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy ta'minotida ham bir qancha muammo va kamchiliklar ko'zga tashlanadi.

5. Iqtiboslar/ Snoski/ References:

1. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70-80-йиллар мисолида). Тошкент: "Шарк", 1999. (Bobojonova D. Socio-economic relations in Uzbekistan (in the case of the 70-80s). Tashkent: "Sharq", 1999.)

2. Ходжиев Э. Х. История орошения и освоения Голодной степи. Ташкент: "Фан", 1975. (Khodjiev E.Kh. History of irrigation and development of the Hungry Steppe. Tashkent: "Fan", 1975.)

3. Холмўминов Ҳ.Э. Ўзбекистонда совет мустамлакачилиги сиёсатининг миграцион жараёнларга таъсири: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент: 2007. (Kholmominov H.E. The impact of the Soviet colonial policy on migration processes in Uzbekistan: A dissertation written for the degree of candidate of historical sciences. Tashkent: 2007.)

4. O'zbekiston Milliy arxivi. 2347-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 64-varaq. (National archive of Uzbekistan. Fund 2347, list 1, case 5, sheet 64.)

5. O'zbekiston Milliy arxivi. 2347-fond, 1-ro'yxat, 37-ish, 81-varaq. (National archive of Uzbekistan. Fund 2347, list 1, case 37, sheet 81.)

6. O'zbekiston Milliy arxivi. 2347-fond, 1-ro'yxat, 47-ish, 129-varaq. (National archive of Uzbekistan. Fund 2347, list 1, case 47, sheet 129.)

7. O'zbekiston Milliy arxivi. 2347-fond, 1-ro'yxat, 53-ish, 169-varaq. (National archive of Uzbekistan. Fund 2347, list 1, case 53, sheet 169.)

8. Samarqand viloyat davlat arxivi. 74-fond, 1-ro'yxat, 603-ish, 20,21-varaqlar. (State archive of Samarkand region. Fund 74, list 1, case 603, sheets 20, 21.)

9. Samarqand viloyat davlat arxivi. 74-fond, 1-ro'yxat, 952-ish, 48,49-varaqlar. (State archive of Samarkand region. Fund 74, list 1, case 952, sheets 48, 49.)

10. Samarqand viloyat davlat arxivi. 74-fond, 1-ro'yxat, 5351-ish, 291-varaq. (State archive of Samarkand region. Fund 74, list 1, case 5351, sheet 291.)

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 18 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 7, НОМЕР 18

LOOK TO THE PAST

VOLUME 7, ISSUE 18

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000